

O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA BAHO KATEGORIYASI VA UNING MAQOLLARDA AKS ETISHI

Maxkamova Munisxon Abdumannopovna
ISFT instituti "Filologiya va tillarni o'qitish"
kafedrasini ingliz tili o'qituvchisi mustaqil
tadqiqotchi
munisamaxkamova131@gmail.com
<https://doi.org/10.5281/zenodo.14205752>

Annotatsiya: Ushbu maqola o'zbek va ingliz tillarida baho kategoriyasining aks etishi va maqollardagi illokutiv vositalar tahlil qilingan. Baho kategoriyasining nutq aktlari orqali tinglovchiga ta'sir o'tkazish usullari, shuningdek, maqollarning pragmatik va kommunikativ xususiyatlari va kommunikativ ma'noning nutqiy vaziyatlarda o'zgarib borishi tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: baho kategoriyasi, pragmatik tahlil, baholovchi iboralar, o'zbek va ingliz maqollari, kommunikativ vaziyat, axloqiy qadriyatlar.

Abstract: This article analyzes the manifestation of the evaluative category in Uzbek and English languages and examines illocutionary devices in proverbs. The study explores how the evaluative category influences the listener through speech acts, as well as the pragmatic and communicative features of proverbs and the changing communicative meaning in various speech contexts.

Keywords: evaluative category, pragmatic analysis, evaluative expressions, Uzbek and English proverbs, communicative context, moral values.

Kirish

Til, inson fikrini va hissiyotini ifoda etuvchi vosita sifatida baholash kategoriyasini o'z ichiga oladi. Baholash, ijtimoiy munosabatlar va madaniy qadriyatlarni tasvirlovchi asosiy omil sifatida, turli tillarda o'zgacha shakllarda aks etadi. Maqollar axloqiy qadriyatlar va ijtimoiy me'yorlarning qanday shakllanishi va ifodalanishi ochib beradi. Tahlillar tilning deskriptiv va dinamik foydalanish usullari hamda pragmatik vaziyatlar o'rtasidagi aloqalarni ochib berishga yordam beradi. Shu asosda maqollarning turli kontekstlarda qanday o'zgarishi va baholovchi ma'nolarning o'ziga xosligi aniqlanadi.

Baholashda shaxsning subyektiv munosabati aks etadi. Bunda borliq, buyum va hodisalar, hamda ijtimoiy voqeliklar inson ehtiyojlari, jismoniy holati va ruhiyati nuqtai nazaridan baholanadi. Bahoning mazmuni insonning maqsadi, munosabati va anglash darajasi bilan bevosita bog'liqdir. Baholash va qadriyat xususiyatlari shaxs va jamiyat munosabatining asosiy ko'rsatkichlari bo'lib, tilda turli shakllarda ifodalanadi [1].

Baholash kategoriyasi parimeologik birliklar orqali aniq aks etadi, chunki maqollar muloqot jarayonida insonning subyektiv munosabatini va qadriyatlarini ifodalash vositasi bo'lib xizmat qiladi. Maqollar yordamida inson o'z nuqtayi nazarini asoslash, bashorat qilish, shubha bildirish, tanbeh berish, o'zini yoki boshqalarni oqlash, yupatish kabi ko'plab holatlarda o'z bahosini bildiradi. Shu tarzda, baholash kategoriyasi insonning turli vaziyatlardagi shaxsiy qarashlarini va axloqiy qadriyatlarini ifodalaydi, bu esa til orqali uning kommunikativ maqsadlarini amalga oshirishga imkon beradi[2].

Stivensonga ko'ra, baho orqali ta'sir qilish tinglovchining psixologik holati bilan cheklangan. Olim tilni ishlatishning ikki usulini ajratadi: deskriptiv va dinamik. Birinchisi bizning qarashlarimizni belgilash, aniqlashtirish va bildirishdan iborat. Ikkinchisi esa bizning his-tuyg'ularimizni ifodalash, kayfiyat yaratish va odamlarda harakat va e'tiqodga undashga qaratilgan. Nutqning ikkala maqsadi ham so'zlarning ma'nosi bilan o'zaro aloqada bo'lib, ular mustaqil ravishda belgilangan. Stivensonga ko'ra, baholovchi so'zlar tilni dinamik foydalanish bilan bog'liq.

Lingvistik tahlil maktabining boshqa vakili R. Xaer ham baholovchi ma'noni harakat bilan bog'lovchi kommunikativ o'rnatma asosida tushuntiradi. Xaerga ko'ra, baho tavsiya, ko'rsatma ifodalaydi. U baho va preskriptiyaning umumiyligini va ularning farqlarini ko'radi. Qiymat hukmlari umumiy xarakterga ega: ular muayyan me'yorga (qoida yoki normaga) havola qiladi [3].

Baholovchi iboralar va aksiyologik matnlarning kommunikativ tahlili ingliz maktabi vakillari tomonidan ishlab chiqilgan. Ma'no aniqlanishida uning kommunikativ funksiyasi asos qilib olingan bo'lib, tadqiqotchilar diqqatini matndan so'zga qaratdi. Baholovchi iboralarning kommunikativ xilma-xilligi baholovchi ma'nolarning murakkab uyg'unlashuvini aniqladi. P. Nouell-Smit birinchilardan bo'lib, turli baholar o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash va ularning funksional xilma-xilligini tushuntirish vazifasini qo'ydi [4].

Baholovchi nutq aktlarining maqsadi tinglovchiga ta'sir ko'rsatishdir. Ular muayyan harakatlarni amalga oshirish majburiyatini yuklashga qaratilgan. Ularning asosiy implikatsiyalari maslahat, undov, tavsiyadir. Baholovchi hukmda konnotatsiya, modal komponent yoki asosiy funksiyaga kiruvchi kommunikativ o'rnatma so'z ma'nosiga pragmatik xususiyat beradi.

Linguistik bahoni o'rganishda kommunikativ yoki pragmatik yondashuv baholovchi predikatlarining illokuativ ko'lamiga asoslanadi. Baholovchi iboraning

kiritilishi qandaydir harakatga rahbarlik qilish uchun kuchli omil bo'lib xizmat qiladi [5]. Illokuativ kuch nutq aktlari nazariyasining o'rganish obyekti hisoblanadi. Nutq aktlari nazariyasi quyidagi komponentlarni o'z ichiga oladi: so'zlovchi, tinglovchi, ibora holati, nutq akti modeli, shuningdek, nutq aktining maqsadi va natijasi. Yakka nutq aktida uch darajali tuzilma sifatida taqdim etiladi. 1. Nutq akti (NA) nutq davomida ishlatiladigan til vositalariga nisbatan lokutiv akt sifatida namoyon bo'ladi. 2. NA o'z maqsadi va uni amalga oshirish shartlariga nisbatan illokuativ akt sifatida namoyon bo'ladi. 3. O'z natijalariga nisbatan NA perlokutiv akt sifatida namoyon bo'ladi.

Illokuativ akt davomida til vositalaridan foydalanib, so'zlovchi o'z iborasini lokutiv ma'no bilan ta'minlaydi. Nutqning muayyan sharoitlarda amalga oshirilish maqsadini ifodalab, so'zlovchi iboraga muayyan illokuativ kuch beradi. Shunday qilib, nutq akti va iboraning semantikasi tahlilida lokutiv akt – lokutiv ma'no va illokuativ akt – illokuativ kuch kabi ikkita o'zaro bog'liq kategoriya ajratiladi [5].

Linguistik adabiyotlarda illokuativ aktlarni o'lchashning turli mezonlari mavjud, masalan, so'zlovchi va tinglovchining maqomi, aktning maqsadi, ifodalangan psixologik holatlar, illokuativ fe'lning performativ yoki neperformativ ishlatilishi va boshqalar [7]. Nutq aktlari nazariyasining yaratuvchisi D. Ostin quyidagi nutq harakatlarini ajratib ko'rsatadi: verdiktivlar (hukum), ekzertivlar (hokimiyatni amalga oshirish aktlari), komissivlar (majburiyat aktlari), behabativlar (ijtimoiy xulq-atvor aktlari - uzr so'rash, so'kish va h.k.), ekspozitivlar (izoh aktlari "Men isbotlayman", "Men tan olaman") [6]. D. Searle illokuativ aktlarning yanada tartibli tasnifini taklif qiladi: 1) representativlar yoki assertivlar (X Aga ishongan "Men ta'kidlayman"), 2) direktivlar (X Yga ta'sir ko'rsatib, Yning Ani bajarishini talab qiladi - "Men buyuraman"), 3) komissivlar (X Anni bajarishga majburiyat oladi - "Men va'da beraman"), 4) ekspressivlar (X Aga nisbatan o'z psixologik holatini bildiradi - "Men minnatdorman"), 5) deklaratsiyalar (X Ani gapirib, Ani haqiqatga aylantiradi - "Men sizni ishdan bo'shataman") [7].

A.A. Romanovning ishida 14 turdagi nutqiy harakatlarni o'z ichiga olgan nutq aktlarining batafsil tasnifi keltirilgan: komissivlar (va'dalar, bahslar), ekspozitivlar (tushuntirishlar, tahdidlar), Masalan, tasdiqlash tinglovchining informatsion fondini kengaytirishdan iborat nutq akti sifatida tushuniladi. Bu nutq aktini talqin qilishda ko'pincha "takidlamok", "tasdiqlamok" kabi performatik fe'llar ishlatiladi. Shuni hisobga olish kerakki, hech bir nutq asosan axborotga qaratilgan emas. Jon Serlning

fikriga ko'ra, tilda ma'noni ifodalashning eng oddiy holatlari orasiga shunday holatlar kiradi: aytuvchi ma'lum bir gapni aytishda aynan va faqat aytganini nazarda tutadi. Bunday holatlarda quyidagilar sodir bo'ladi: aytuvchi tinglovchiga o'z maqsadini tanib olishga undagan holda, uni ma'lum bir illokutiv ta'sir ko'rsatishga undaydi; tinglovchi gap tuzishda qo'llaniladigan qoidalar haqidagi bilimlariga tayanib, aytuvchining niyatini anglab olishga harakat qiladi. Ammo shuni aytish kerakki, bunday semantik soddalik barcha tabiiy til ifodalariga xos emas: kinoya, kinoyalar, istihola va metaforalar bilan aytuvchi gap ma'nosi va gapning to'g'ridan-to'g'ri ifodasi o'rtasida ko'pincha farq bo'ladi. Bunday tafovutlar ichida muhim bo'lgan holatlar shular, masalan, aytuvchi gapni aynan nazarda tutgan ma'noda aytadi, ammo shu bilan birga boshqa illokutiv ma'no bilan boshqa taklif etuvchi ma'noni ham nazarda tutadi [7].

Ma'lum bir turdagi illokutiv kuchga ega maqollar, boshqa turdagi illokutiv aktini bajarish uchun ishlatiladi. Masalan, "A cat in gloves catches no mice" (Mashaqqatsiz roxat bolmas) kabi tasdiqlash illokutiv kuchiga ega maqollar maslahat va yo'l-yo'riq berish aktini bajarish uchun aytiladi: natijaga erishmoqchi bo'lsang, dangasalik qilmaslik kerak. Ushbu maqolda "dangasalikka" oid kontsept ifodalangan. Jamiyatda insonning dangasa bo'lishi qoralangan. Inson xulq-atvoriga axloqiy me'yorlarga mos keladigan talablar qo'yiladi.

Biz maqollarda baho pragmatik xarakterga ega degan fikrga qo'shilamiz [8,9,10]. V.V. Gvozdevning fikricha, baholash – bu haqiqatning maqolda tavsiflangan bir qismiga, uning mavjudligi yoki nomuvofiqligiga nisbatan aytuvchining ijobiy yoki salbiy munosabatini, maqolda tasvirlangan hodisani inson amaliy faoliyatida ishlatish imkoniyati yoki mumkin emasligini bildiruvchi ikkilamchi ma'nolar yig'indisidir. Baholovchi nutq aktlari, shu jumladan maqollar, ularning amalga oshiriladigan pragmatik vaziyat bilan belgilanadi. Bunday maqollar uchun asosiy vaziyat – dialog holatidir.

Aytuvchi va adresatning ijtimoiy sharoitlarga bog'liq rollari (rahbar – xodim, katta – bola va boshqalar) ularning o'zaro ta'sirida muhim ahamiyatga ega. Bundan tashqari, baholashning pragmatik holatiga aytuvchi-adresatning vaziyatdagi roli (dialog ishtirokchilarining hissiy holati, o'zaro munosabatlari) ham ta'sir ko'rsatadi.

Quyidagi misolda, "Better the devil you know than the devil you don't know" "Yomonning o'zidan ko'ngil qoladi, begonadan ko'proq" maqoli, bir tomondan,

salbiy bahoga ega, ammo qo'llanish konteksti baholash ma'nosini o'zgartiradi. Maqol kulgili xarakter kasb etadi va bu nutq aktining illokutiv maqsadi iltimos hisoblanadi.

Kommunikativ frazeologik birlik sifatida maqol potentsial illokutiv kuchga ega. Ta'kidlanishicha, "illokutiv kuchning yadrosi aytuvchining kommunikativ maqsadini (niyat, yo'nalish) tashkil etadi. Shu bilan aytish mumkinki, kommunikativ-maqсад semantikasi til egalari faoliyatining yo'nalishli jihatlarini tavsiflaydi [5]. Maqollarning potentsial illokutiv kuchi tavsiya sifatida ifodalanadi, ya'ni ijtimoiy me'yorlarga rioya qilish bo'yicha maslahat beradi, masalan: "None but the brave deserves the fair" – Jasoratli bo'lmagan oshiq bo'lmas., "It's a sin to steal a pin" – "Yarim tanga ham harom." va hokazo. Ma'lumki, maqollar ta'limot va xulq-atvor qoidalari xarakteriga ega. O'rgatish huquqi tajriba va xalq donishmandligi bilan asoslanadi. Nutq faoliyatining subyekti "abstrakt shaxs" hisoblanadi.

Kommunikativ vaziyatda aytuvchi va tinglovchi ishtirok etganda, maqol haqiqiy illokutiv kuch bilan tavsiflanadi. Shaxsiy subyektlarga tegishli bo'lgan ifodalarning illokutiv maqsadi aytuvchining hissiy holatini ifodalash va tinglovchiga ma'qullash va qoralash asosida hissiy ta'sir ko'rsatishdir. Ular taqiq, dalil, tushuntirish va rozilikni o'z ichiga oladi. Maqollarning haqiqiy illokutiv kuchi baholovchi nutq aktlariga bo'linadi, bu esa tasdiq, ogohlantirish, maslahat, yo'l-yo'riq, maqtov, tanbeh, iltimos, buyruq kabi illokutiv kuchlarni o'z ichiga oladi.

Maqollarning potentsial illokutiv kuchini bilish, ularning foydalanish vaziyatidagi tahliliga yordam beradi. Maqollarning axloqiy qadriyatlarni ifodalash orqali haqiqiy illokutiv kuchini aniqlash, ularning turli qo'llanilish vaziyatlarida baholovchi ma'nolari qanday o'zgarishini kuzatish imkonini beradi.

Xulosa

Ushbu tadqiqot orqali o'zbek va ingliz tillarida baho kategoriyasining o'ziga xos xususiyatlari hamda maqollarda qanday aks etishi o'rganildi. Baholash aktlari orqali tinglovchiga ta'sir ko'rsatish imkoniyatlari tilning pragmatik va kommunikativ aspektlari bilan chambarchas bog'liq ekanligi aniqlandi. Tahlil qilingan maqollarda axloqiy qadriyatlar va ijtimoiy me'yorlar ifodalanib, ular tilning dinamik xususiyatlarini ko'rsatdi. Olingan natijalar tilning deskriptiv va dinamik usullari o'rtasidagi o'zaro aloqalarni aniqlashga, shuningdek, maqollar orqali baholovchi ma'nolarning illokutiv kuchi qanday shakllanishini tushunishga yordam beradi. Shu tarzda, o'zbek va ingliz tillaridagi maqollar baholovchi so'zlar vositasida jamiyat qadriyatlarini ifodalash va shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qambarov G'. Baho munosabati va uning o'zbek tilida ifodalanishi (shaxslararo munosabat asosida). Filol.fan.nom.diss.. – T., 2008. – B.22.
2. Маджидова Р.У. Антропоцентрик мақолларнинг аксиологик тадқиқи (ўзбек ва рус тиллари материаллари асосида): Филол. фан. док. ... дисс. автореф. – Фарғона, 2020. – 74 б.
3. Hare, R. Meaning and Meaningfulness. Cambridge University Press.1972. P.133.
4. Nowell-Smith, P. Ethics. Penguin Books. 1957.
5. Kobozeva, I., Demyankov, V. Pragmatic Analysis in Speech Act Theory. Moscow State University. 1986.
6. Austin, J. L. How to Do Things with Words. Oxford University Press. 1986.
7. Searle, J. R. Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language. Cambridge University Press.1986. P 172-177.
8. Gvozdev, V. V. Pragmatic Characteristics of Proverbs. Moscow. (1983).
9. Karasik, V. I. (1994). Cultural Linguistics. Moscow.
10. Buneeva, T. N. (2001). Proverbs in Pragmatic Analysis.